

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

FARMONI

“Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o’sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to’g’risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

????Farmonga muvofiq, quyidagilar joriy etiladi:

□ qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlarni mulk huquqi asosida auksion orqali sotishda to’lovlarni 3 yilgacha bo’lib-bo’lib to’lashga ruxsat etiladi;

□ bo’lib-bo’lib to’lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar bo’yicha kamida 35 foizi miqdoridagi dastlabki to’lovni biryo’la amalga oshirgan xaridorlarga mazkur mulklarni kredit ta’minoti sifatida garovga qo’yish huquqi beriladi.

□ 2022-yil 1-maydan ro’yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan xorijiy davlatlar fuqarolariga O’zbekistonda yashash guvohnomasini talab qilmagan holda, yangi barpo etilayotgan quyidagi ko’chmas mulk obyektlarini sotib olish tarzida investitsiya kiritish huquqi beriladi:

????Toshkent viloyati, Toshkent va Samarqand shaharlarida – qurilish davrida tuzilgan shartnomalarga asosan qiymati 150 ming AQSH dollari ekvivalentidan, foydalanishga qabul qilingan ko’chmas mulk obyektlarida qiymati 180 ming AQSH dollari ekvivalentidan kam bo’lmagan ko’chmas mulk obyektlari;

????boshqa hududlarda – qurilish davrida tuzilgan shartnomalarga asosan qiymati 70 ming AQSH dollari ekvivalentidan, foydalanishga qabul qilingan ko’chmas mulk obyektlarida qiymati 85 ming AQSH dollari ekvivalentidan kam bo’lmagan ko’chmas mulk obyektlari.

~~Bunda, mazkur ko’chmas mulk obyektlarini sotib olish xorijiy davlatlar fuqarolariga O’zbekistonda doimiy ro’yxatdan o’tish va yashash guvohnomasini olish uchun asos bo’lmaydi.~~

???? Xorijiy mamlakatlar fuqarolariga ko’chmas mulk sotib olish sharti bilan O’zbekistonda yashash guvohnomasini olish uchun talab etiladigan ko’chmas mulk qiymati miqdori Toshkent viloyati va Toshkent

shahrida 400 ming AQSH dollaridan 300 ming AQSH dollari ekvivalentigacha kamaytirildi.

Farmonga ko'ra, quyidagilar joriy etildi:

→ oxirgi yildagi savdo tushumi BHMning 10 ming baravaridan (2,7 mlrd so'mdan) oshmaydigan tadbirkorlarga nisbatan monopoliyaga qarshi choralar qo'llanilmaydi;

→ 2022-yil 1-sentyabrdan raqobatga qarshi harakat qilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga quyidagilar uchun moliyaviy jarimalar qo'llaniladi:

????tovar va moliya bozorida raqobatni cheklashga olib keluvchi kelishuvlar va iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish;

???? ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini asossiz oshirganlik va insofsiz raqobat;

????xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishda, qo'shib olishda va aksiyalarni sotib olish bitimlarini tuzishda raqobatni buzish;

????ommaviy savdolarida raqobatga zid harakatlar amalga oshirganlik va monopoliyaga qarshi talablarni buzish.

2022-yil 1-maydan norezident shaxsning O'zbekistondagi manbalardan oladigan daromadlari bo'yicha daromad solig'i 12 foiz miqdorida belgilanadi (ilgari 20 foizgacha).

2022-yil 1-iyuldan bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlar faqatgina qonunlar bilan beriladi.

Farmonga ko'ra, Toshkent shahri misolida Nukus shahri va barcha viloyatlar markazlarida jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasi joriy etiladi.

2022-yil 1-iyuldan davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish va ijro organi a'zolariga haq to'lashda yagona rag'batlantirish siyosati joriy etiladi.

Bunda, ijro organi a'zolariga ish haqi va yil bo'yicha bir yo'la to'lanadigan mukofotdan tashqari har qanday qo'shimcha to'lov bekor qilindi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar Prezident va Hukumat qarorlarida nazarda tutilmagan hollarda quyidagilar taqiqlanadi:

faoliyatiga xos bo'lmagan yangi obyektlarni sotib olish yoki qurish;

raqobat rivojlangan sohada faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish;

faoliyatiga xos bo'lmagan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish.

Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan banklar tomonidan mulkni sotish, boshqa korxonaga investitsiya kiritish kelishuvlari majburiy tarzda korxonalar kuzatuv kengashi bilan kelishiladi.

Davlat korxonalarining homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak.

2022-04-19 10:42:42